

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**RAXIMBERGANOVA BONU DAVLATNAZAROVNA**

**MUDDATLI MEHNAT SHARTNOMALARINI HUQUQIY TARTIBGA  
SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UDK: 349.222(043.5)(575.1)

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

<b>Raximberganova Bonu Davlatnazarovna</b> Muddatli mehnat shartnomalarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish.....	3
<b>Рахимберганова Бону Давлатназаровна</b> Совершенствование правового регулирования срочных трудовых договоров .....	21
<b>Raximberganova Bonu Davlatnazarovna</b> Improving the legal regulation of fixed-term labour contracts .....	41
<b>E'lon qilingan ishlar ro'yxati</b> List of published works Список опубликованных работ .....	45

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAXIMBERGANOVA BONU DAVLATNAZAROVNA

MUDDATLI MEHNAT SHARTNOMALARINI HUQUQIY TARTIBGA  
SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu879 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Ziyadullayev Maxmudjon Djurakulovich  
yuridik fanlar doktori, dotsent

Sattarova Gulnoza Djurakulovna  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 15-mart kuni soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1360-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 26-fevral kuni tarqatildi.  
(2025-yil 26-fevraldagi 69-son reyestr bayonnomasi).



**I.R. Rustambekov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**D.Y. Xabibullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**B.K. Xodjayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda muddatli mehnat shartnomasi asosida ishlashning nostandart bandlik shakli sifatida e'tirof etilganligi ushbu shartnoma turini qo'llashda ish beruvchilarga to'laonlik erkinlik berilishga to'sqinlik qilmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha ishsizlik darajasi 5,1 foizni tashkil etgan<sup>1</sup>. Jahon mehnat bozorida ishsizlik darajasining kamayishiga muddatli mehnat shartnomasi asosida ishlayotganlar soni ortganligi ham sabab bo'lgan. 2023-yilda Yevropa Ittifoqining 23,1 million aholisi muddatli ishlarda band bo'lgan, bu esa 15-64 yoshdagi ish bilan band aholining 11,6 foizini tashkil etgan<sup>2</sup>. Muddatli mehnat shartnomasi asosida ish bilan band bo'lish ko'rsatkichi o'sib borayotganligiga qaramasdan, mehnat bozorida vaqtinchalik xodimlarga bo'lgan ehtiyoj kamaymayotganligi muddatli mehnat shartnomasini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi.

Jahonda muddatli mehnat shartnomalarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Aksariyat davlatlar qonunchiligida muddatli mehnat shartnomalarini tuzish asoslarini belgilash mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishda moslashuvchanlik (flexibility) nazariyasiga asoslangan bo'lsa, Skandinaviya mamlakatlarida moslashuvchanlik bilan xodimlar himoyasini uyg'unlashtirgan moslashuvchan himoya (flexecurity) nazariyasi doktrinal asos sifatida ustunlikka ega. Shuningdek, jahon amaliyotida muddatli mehnat shartnomalari "qattiq tartibli (strict regulation)", "anglo-sakson ("at-will" employment)", "segmentlangan bozor iqtisodiyoti (dual)", "skandinavcha farovonlik (flexecurity)" modellariga asoslangan holda huquqiy tartibga solinganligini ko'rish mumkin. Hozirgi ishlab chiqarish jarayonlarining globallashuvi sharoitida muddatli mehnat shartnomalarini liberallashtirish masalalarini o'z ichiga olgan doktrina (nazariya)larni tadqiq qilish ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ish beruvchilarning muddatli mehnat shartnomalarini tuzish huquqini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "bandlik va aholi daromadini oshirish – davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi"<sup>3</sup> hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda zamonaviy bandlik shakllarini joriy etish, xususan muddatli mehnat shartnomalarini huquqiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasining 28-maqsadi sifatida aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish nazarda tutilgan. Biroq milliy qonunchilikda

<sup>1</sup> World Employment and Social Outlook: Trends 2024. URL: <https://www.ilo.org/publications/flagship-reports/world-employment-and-social-outlook-trends-2024>.

<sup>2</sup> Temporary and permanent employment – statistics. URL: [https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Temporary\\_and\\_permanent\\_employment\\_-\\_statistics](https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Temporary_and_permanent_employment_-_statistics).

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 10-mayda o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqi. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/7228>.

muddatli mehnat shartnomalarini tuzishda ish beruvchilarning huquqlari qonun bilan chegaralangan holda davlat tomonidan qat'iy tartibga solinganligi, qonunosti hujjatlar bilan muddatli mehnat shartnomalarini tuzish asoslari belgilanishi natijasida normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyat paydo bo'layotganligi, shu bilan birga, mehnat qonunchiligining ayrim normalaridagi bo'shliqlar ushbu sohada muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra mamlakatimizda ish beruvchilarga muddatli mehnat shartnomalarini tuzishda keng imkoniyatlar berishga va bu jarayonda xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish va istiqbollarini belgilash zaruriyati vujudga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2022), "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni (2020), "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017), "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022) Farmonlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot mavzusi O'zbekistonda shu kunga qadar maxsus o'rganish predmeti bo'lmagan, biroq ayrim huquqshunos olimlar tomonidan mazkur mavzuning u yoki bu jihatlari hozirda tadqiq etib kelinmoqda. Huquqshunoslar A.A.Inoyatov, M.A.Usmanova, Y.Tursunov, M.Y.Gasanov, G.D.Sattarova, Sh.A.Ismoilov, D.S.Atajanova, M.A.Raximov, X.V.Burxanxodjayeva, L.U.Rahimqulova, I.R.Yuldashev, D.S.Abdullayeva, B.S.Avazovlar tomonidan muddatli mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ayrim jihatlar o'rganilgan. Jumladan huquqshunos olim M.Gasanov muddatli mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan bo'lsa, Sh.Ismoilov ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari bilan bog'liq ilmiy ishlari tarkibida vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan xodimlar mehnatini tartibga solish xususiyatlarini o'rgangan. B.Avazov Yaponiya, Germaniya va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida muddatli mehnat shartnomalarini huquqiy tartibga solinganlik darajasini qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilgan. Shuningdek, muddat huquqiy kategoriya sifatida fuqarolik huquqida N.F.Imomov, biznes huquqida F.B.Ibratova, fuqarolik protsessual huquqida E.Egamberdiyevlar tomonidan tadqiq qilingan.

Shu o'rinda tadqiqot mavzusi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar MDH davlatlari olimlari tomonidan bevosita o'rganilganligini ta'kidlash kerak. Xususan, S.V.Utkin, Y.S.Batusova, S.V.Osipova, O.V.Kuzakova, Y.V.Demido, A.A.Xanevskiy, A.V.Zavgorodniy, A.G.Podupeyko, Y.A.Mixaylenko, N.G.Aleksandrov, M.V.Lushnikova, A.M.Lushnikov, N.L.Lyutov, M.Y.Pintayeva,

Y.B.Xoxlov va boshqalar muddatli mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish masalalarini tadqiqot obyekti sifatida o'z ilmiy ishlarida o'rgangan.

G'arb davlatlarida Deborah J. Lockton, Hugh Collins, Mark Freedland, David Cabrelli (Buyuk Britaniya), Tom Brown (AQSH), Tangian Andranik (Germaniya), Pascal Lokiec (Fransiya), J. Ignacio Garcia Perez (Ispaniya), Nicola Kountouris (Belgiya), Agata Ludera-Ruszel (Polsha) kabi olimlar tomonidan nostandart bandlik shakli hisoblangan muddatli mehnat shartnomasi, vaqtinchalik ishlarni tartibga solish muammolari ilmiy jihatdan tadqiq qilingan<sup>4</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mehnat qonunchiligini rivojlantirish istiqbollarini belgilash va mehnat bozorini huquqiy tartibga solishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish", "Rivojlangan davlatlar qonunchilik amaliyoti va xalqaro mehnat huquqi yutuqlarini nazariy tadqiq etish asosida olingan natijalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalarini tadqiq etish" ilmiy loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** muddatli mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartirish, bekor qilish sohasidagi muammolarni kompleks tarzda o'rganish, shuningdek ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

muddat tushunchasi, muddatlarning turlari, mehnat shartnomasining zaruriy sharti sifatida muddatning ahamiyatini tahlil etish;

muddatli mehnat shartnomasi tushunchasini, bugungi kundagi ahamiyatini hamda amaliyotda qo'llashning mohiyatini yoritib berish;

muddatli mehnat shartnomasini tartibga solishga qaratilgan huquqiy asoslarning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

muddatli mehnat shartnomalarini huquqiy tartibga solishga oid xorijiy mamlakatlarda amalda bo'lgan konsepsiya, doktrina va ilg'or modellarni qiyosiy-huquqiy tadqiq etish;

muddatli mehnat shartnomalarini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda xalqaro standartlarni tahlil etish;

muddatli mehnat shartnomasini tuzish asoslarini tahlil qilish va ularni tasniflash muammolarini o'rganish;

huquqni qo'llash amaliyotida muddatli mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibini tahlil qilgan holda qonunchilikdagi bo'shliqlarni aniqlash orqali milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekistonda muddatli mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** muddatli mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy

<sup>4</sup> Mazkur manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va doktrinlardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borish jarayonida qiyosiy-huquqiy tadqiqot, mantiqiy, tarixiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, aniq sotsiologik, empirik tadqiqot olib borish usullari (so'rovnoma o'tkazish va intervyu), statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

muddatli mehnat shartnomasini tuzish sabablari bo'lib xizmat qilgan holatlarga o'rin qolmagan taqdirda mehnat shartnomasini nomuayyan muddatga uzaytirilgan deb hisoblanishi zarurligi hamda xodimlarga qonunchilikda belgilangan huquqlar va kafolatlarni berishdan bosh tortish maqsadida muddatli mehnat shartnomalarini tuzish taqiqlanishi kerakligi asoslantirib berilgan;

ish beruvchilarga keng imkoniyatlar berish maqsadida muddatli mehnat shartnomasi tuziladigan holatlarni hamda taraflar kelishuvi bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin bo'lgan holatlarni kengaytirish zaruriyati asoslantirilgan;

mehnati shartnomasi muddatining umumiy davomiyligini kunlarda, oylarda, yillarda ko'rsatish, mehnat shartnomasi bo'yicha ish boshlanadigan kalendar sanani va mehnat shartnomasining muddati tugaydigan kalendar sanani ko'rsatish, yuz berishi bilan mehnat shartnomasining muddati tugaydigan hodisani aniqlash orqali belgilash zaruriyati asoslantirilgan;

zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalana oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan professor-o'qituvchilarni tanlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar tarkibi bilan bir yillik muddatli mehnat shartnomalarini tuzish amaliyotini joriy etilishi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mehnati shartnomasida belgilangan ishning boshlanish sanasida yoki mehnat shartnomasida mazkur sana belgilanmagan bo'lsa, mehnat shartnomasi kuchga kirgan kundan keyingi ish kunida uzrli sabablar bo'lmagani holda ishga chiqmagan xodimning mehnat shartnomasi tuzilmagan deb hisoblash tartibi ishlab chiqilgan;

muddatli mehnat shartnomasini tuzish mumkin bo'lgan holatlarni har qanday qonunchilik hujjatlarida belgilash mumkinligi asoslantirilgan;

taraflar kelishuvi bilan muddatli mehnat shartnomasini tuzish mumkin bo'lgan holatlarning kengaytirilgan ro'yxati ishlab chiqilgan;

mehnati shartnomasining muddati tugaganligi uchun bekor qilishda ogohlantirish muddatini pullik kompensatsiya bilan almashtirish qoidalari ishlab chiqilgan;

qonun hujjatlariga muvofiq muddatli mehnat shartnomasining eng ko'p muddati o'rnatilgan bo'lsa, shartnoma muddati mazkur muddatdan ortib ketishi mumkin emasligi asoslantirilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, so'rovnoma, ekspert baholash shakllariga asoslangan, statistik ma'lumotlarning natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, shuningdek xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi

milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan ma'qullangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy mehnat huquqi fani nazariyasini muddatlar va ularni huquqiy tartibga solinishi bilan bog'liq tushunchalar bilan boyitilganligi, bu sohadagi qonunchilikning rivojlanish evolyutsiyalarini aniqlab berilgani, muddatlarning tasnifi, mehnat huquqi nazariyasidagi doktrinalar va prinsiplar tahlil qilinib, amaldagi milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun mehnat bozorining moslashuvchanligi (flexibility) doktrinasining ustunligi va boshqa yondashuvlarning asoslab berilganligida namoyon bo'ladi. Taklif va tavsiyalar kelgusida qiyosiy-huquqiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, normativ-huquqiy hujjatlar, jamoa shartnomalari va kelishuvlarini ishlab chiqish, qonunchilik normalariga sharhlar tayyorlashda hisobga olinishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Mehnat huquqi, Mehnat nizolarini hal etish, Qiyosiy mehnat huquqi modullarini o'qitish, ish beruvchilar, xodimlar hamda kasaba uyushmalari uchun amaliy qo'llanmalar tayyorlash, Oliy sud Plenumi qarorlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

muddatli mehnat shartnomasini tuzish sabablari bo'lib xizmat qilgan holatlarga o'rin qolmagan taqdirda shartnoma nomuayyan muddatga uzaytirilgan deb hisoblanishi zarurligi hamda xodimlarga qonunchilikda belgilangan huquqlar va kafolatlarni berishdan bosh tortish maqsadida muddatli mehnat shartnomalarini tuzish taqiqlanishi haqidagi asoslantirilgan takliflari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 111-moddasida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 5-avgustdagi 12-15-56-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflarning qabul qilinganligi xodimlarga muddatli mehnat shartnomasini tuzish asoslari mavjud bo'lmaganda mehnat munosabatlarini davom ettirish imkoniyatini kafolatlashga, ish beruvchilarning huquqni qo'llash amaliyotida muddatli mehnat shartnomasidan xodimlarning huquq va kafolatlarni ta'minlamaslik maqsadida foydalanishlarini to'xtatishga xizmat qilgan;

ish beruvchilarga keng imkoniyatlar berish maqsadida muddatli mehnat shartnomasi tuziladigan holatlarni hamda taraflar kelishuvi bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin bo'lgan holatlarni kengaytirish zaruriyati haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 112 va 113-moddalarida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 5-avgustdagi 12-15-56-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinganligi muddatli mehnat shartnomasini tuzish asoslari mehnat qonunchiligida aniqlashtirilishiga hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga xodim yollashda erkinlik berilishiga xizmat qilgan;

mehnati shartnomasi muddatining umumiy davomiyligini kunlarda, oylarda, yillarda ko'rsatish, mehnat shartnomasi bo'yicha ish boshlanadigan kalendar sanani va mehnat shartnomasining muddati tugaydigan kalendar sanani ko'rsatish, yuz berishi bilan mehnat shartnomasining muddati tugaydigan hodisani aniqlash

orqali belgilashga qaratilgan taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 114-moddasida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 5-avgustdagi 12-15-56-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinganligi muddatli mehnat shartnomasini belgilashning uchta usuli ajratilishi va aniqlashtirilishi natijasida huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarga barham berilishiga xizmat qilgan;

zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalana oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan professor-o'qituvchilarni tanlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar tarkibi bilan bir yillik muddatli mehnat shartnomalarini tuzish amaliyotini joriy etishga qaratilgan taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-son qarorining 3-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyatining 2022-yil 15-fevraldagi 02-4-30-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinganligi oliy ta'lim muassasalariga professor-o'qituvchilar bilan muddatli mehnat shartnomasini tuzish huquqini amalga oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan ilmiy jurnallarda 7 ta (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari) tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **"Mehnat munosabatlarida muddatlarni tartibga solishning nazariy-huquqiy jihatlari"** deb nomlangan birinchi bobida mehnat

munosabatlarida muddatlarning tutgan o'ri, turlari va hisoblash tartibi, muddatning mehnat shartnomasining sharti sifatidagi tavsifi va ahamiyati, muddatli mehnat shartnomasini tartibga solishga qaratilgan huquqiy asoslarning rivojlanishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqotchi muddatli mehnat shartnomasi mavzusini nazariy jihatdan yoritib berishda umumiylikdan xususiylikka qarab ilmiy tahlil olib borish maqsadida mehnat huquqida "muddat" tushunchasini yuridik fakt sifatidagi ahamiyatini o'rgangan va ilmiy ta'rifini ilgari surgan. Shu bilan birga, huquqshunos olimlar Y.Tursunov, N.Imomov, Y.Suxanov, S.Utkin va boshqa olimlarning huquqiy sohada muddatlarning yuridik fakt sifatidagi qarashlarini tahlil qilgan holda ilmiy munozaraga kirishib, "huquqiy muddat"larning quyidagi xususiyatlarini ochib bergan:

huquqiy muddatlarni o'rnatish va hisobga olishning maxsus qoidalari mavjud ekanligi. Bunda muddatlarni yuridik va faktik boshlanishi va tugashini aniqlash imkoniyati nazarda tutilib, unga ko'ra, dam olish kuniga to'g'ri keladigan muddatlarni dam olish kunidan keyingi ish kuniga ko'chirish, muddatlarni to'xtatib turish, uzrlil sabab bilan o'tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash va boshqa qoidalarning mavjudligi mazkur muddatning huquqiy muddat ekanligini bildiradi;

muddatlarni aniqlash va hisoblashning maxsus qoidalari aynan normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanganligi. Bundan tashqari, aniq muddatlarni yoki vaqtni o'rnatish qonun chiqaruvchi tomonidan huquqiy munosabat subyektlariga yoki davlat organiga berilishi ham mumkin;

huquqiy muddatlarning normativ xarakterga egaligi. Bunda muddatning boshlanishi va tugashi aniq normalar bilan belgilanganligi uchun ular huquqiy munosabatlar va ular subyektlarining xatti-harakatlariga ta'sir o'tkaza oladi, kelgusida huquqiy oqibat keltirib chiqara oladi;

huquqiy muddatlarga rioya etishning majburiyligi. Qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatlarga rioya etmaslik ma'lum bir huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaribgina qolmay, huquqiy munosabatlar subyektlarini javobgarlikka tortilishiga ham asos bo'lishi mumkin. Masalan, intizomiy jazo qo'llash muddatiga rioya etmaslik ish beruvchiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilishiga olib kelishi mumkin;

huquqiy muddatlarning qo'llaniladigan huquq sohasi va huquqiy munosabatlariga ta'siridan kelib chiqqan holda klassifikatsiya qilinishi. Bu muddatlarni turlicha tasniflashga va ularning guruhlantirish mehnat huquqi sohasida qanday ahamiyat kasb etishini aniqlashga imkon beradi.

Dissertant huquqiy muddatlarni tasniflash bo'yicha olimlar (Y.Motina, Y.Demido, A.Periskin, V.Skobelkin, N.Imomov, F.Ibratova)ning nazariy qarashlarini tahlil qilar ekan, u mehnat shartnomasida o'rnatilgan muddatlarni huquqiy hujjatlarining amal qilish davrining chegarasini belgilovchi muddatlar sifatida e'tirof etadi. Mehnat shartnomasini bekor bo'lishi biror shart yoki hodisaga bog'langanlik holatini mehnat huquqidagi shartli muddatlarga bog'laydi. Tadqiqotchi tomonidan mehnat huquqida muddatlarni moddiy va nomoddiy muddatlarga tasniflagan olimlar (A.Xanevskiy, O.Kuzakova)ning qarashlari qo'llab-quvvatlanadi.

Dissertantning fikricha, muddatlarni huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi vosita sifatida samaradorligini ta'minlash maqsadida, ularni o'rnatish faoliyati avvalo quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak:

muddatlar obyektiv ravishda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun zarur bo'lgan joyda o'rnatilishiga;

ularning maqsadli vazifasidan kelib chiqib, muddatlarning oqilona davomiyligiga erishishga;

huquqiy muddatlarning boshlanish va tugash vaqtlarini aniq belgilashga;

huquqiy muddatlarni hisoblash tartibini o'rnatishga.

Shuningdek, tadqiqotchi muddatlarni hisoblash usullarini tahlil qilishda M.Gasanov, S.Utkin va boshqalarning fikr va mulohazalaridan foydalanib, ular bilan ilmiy munozaraga kirishgan. Dissertant tomonidan huquqni qo'llash amaliyotida muddatlarni hisoblash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinib, amaldagi Mehnat kodeksining 9-moddasida belgilangan muddatlarni hisoblash qoidalarini umumiy norma sifatida qabul qilgan holda, ushbu qonunda belgilangan muddatlarni qo'llashga (hisoblashga) oid boshqa qoidalarni istisno etmaslik lozim ekanligi ilgari surilgan.

Dissertant huquqiy muddatlarning mehnat shartnomasida zaruriy shartlar sifatida ko'rsatilganligi ularning ahamiyatini oshirishini, hattoki ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat munosabatlarining boshlanishi muddat bilan alohida bog'langanligini (ishning boshlanish sanasi), shuningdek ayrim hollarda muddatning o'tishi mehnat munosabatini tugashiga sabab bo'lishini (muddatli mehnat shartnomasining muddati tugashi) e'tirof etadi. Shu bilan birga, tadqiqotchi ishning boshlanish sanasida uzrli sabablarsiz ishga chiqmagan xodim bilan mehnat munosabatlarini davom ettirish o'rinsiz ekanligini ta'kidlab, "mehnat shartnomasini tuzilmagan deb hisoblash" institutini milliy qonunchilikka kiritish taklifini beradi.

Tadqiqotchining ilmiy-nazariy tahlillari shuni ko'rsatadiki, mehnat shartnomasida muddat o'rnatilishi bilan, u zaruriy shart sifatida tan olinadi, nomuayyan muddatga tuzilgan shartnomada esa, muddat bilan bog'liq shart, ya'ni uning nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanishi zaruriy shart sifatida ko'rsatilishi talab etilmaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotchi muddatli mehnat shartnomasini tartibga soluvchi qonunchilik asoslarining tarixiy ildizlarini o'rganib, uning rivojlanish genezisiga olimlar (Sh.Ismoilov, Y.Xoxlov, Y.Batusova, N.Vishinskaya, N.Lyutov, S.Osipova va boshqalar)ning nazariy qarashlari bilan ilmiy munozara qilish jarayonida baho bergan hamda ushbu qonunchilikni rivojlanish bosqichlarini mustaqillikdan keyin quyidagi uchta davrga ajratgan holda tahlil qilgan: 1995-yilgacha bo'lgan davr; 1995-yildan 2023-yil 30-aprelgacha bo'lgan davr (2022-yil 28-oktyabrda yangi Mehnat kodeksi qabul qilingani bilan uning kuchga kirish sanasi boshqa bo'lgan); 2023-yil 30-apreldan keyingi davr. Tadqiqotchi muddatli mehnat shartnomasining turli davrlarga xos bo'lgan konseptual-nazariy asoslarini tahlil etgan.

Dissertant tadqiqot ishida mehnat qonunchiligida muddatlarni aniq belgilamaslik, muddatli mehnat shartnomasini tuzish qoidalariga rioya qilmaslik

xodimlar huquqlarini buzilishiga olib kelishini nazarda tutadi. Bunga sabab qilib, ish beruvchi ish vaqtini belgilashda, ta'til berishda, jamoa shartnomasi tuzishda, mehnat shartnomasi tuzishda muddatlarga rioya qilmasligi xodimlarga biror-bir huquq yoki majburiyat yuklovchi yuridik faktlarni vujudga keltirmasligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, xodimlar haqiqatda ega bo'lgan kafolatlardan amalda mahrum bo'lishlari aynan muddatni noto'g'ri qo'llanilganligi oqibatida yuzaga kelishini ta'kidlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "*Xalqaro-huquqiy hujjatlar va xorijiy mamlakatlar qonunchiligida muddatli mehnat shartnomalariga oid zamonaviy tendensiyalar*" deb nomlanib, unda mehnat huquqiga oid xalqaro-huquqiy hujjatlarda muddatli mehnat shartnomasini huquqiy tartibga solishga oid yondashuvlar, ilmiy nazariyalar va doktrinalar hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda muddatli mehnat shartnomalarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, modellari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan BMT, XMT, MDH, Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi, Yevropa Ittifoqi, Yevropa Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlarning mehnat huquqiga oid hujjatlarini tahlil etilib, ularda muddatli mehnat shartnomasini tartibga solinganlik darajasi o'rganilgan. Dissertant ushbu jarayonda mehnat huquqida muddatli mehnat shartnomasini tartibga solish holatini xalqaro darajada belgilashga ta'sir o'tkazgan shartnomaviy erkinlik, institutsionalizm, mehnat bozorining moslashuvchanligi (flexibility), fleksiyuriti (flexicurity), xodimlar huquqlarini himoya qilish (himoya doktrinasi) doktrinalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan.

Doktrinallarni tadqiq qilishda tadqiqotchi G.Sattarova, A.Lushnikov, D.Cabrelli, H.Collins, M.Freedland, D.Guest, J.Perez, H.Hannerz va boshqalarning ilmiy ishlarini o'rganib, ularning ilmiy qarashlarini yoritib bergan. Shuningdek, dissertatsiyada so'nggi yillarda faollashgan hamda doktrina darajasiga ko'tarilayotgan mehnat shartnomasi muddati asosida kamsitishni bartaraf etish nazariyasi asoschilarining (Y.Batusova, Heejung Chung) tadqiqotlari ham tahlil etilib, dissertant tomonidan ilmiy munozaralarga kirishilgan.

Tadqiqotchi standart mehnat munosabatidan nostandard mehnat munosabatiga qadar aniq bosqichma-bosqich harakat mavjud ekanligini inobatga olib, muddatli mehnat shartnomalarini xalqaro-huquqiy tartibga solishning rivojlanishi doimiy dinamikada ekanligini, bunda xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlari muvozanatini saqlash uchun mehnat bozorining moslashuvchanligiga tayanish kerakligini ta'kidlaydi.

Dissertant tomonidan muddatli mehnat shartnomasini tartibga solishda o'ziga xos amaliyotga ega bo'lgan o'ndan ortiq ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil etilib, ularning umumiy xususiyatlari Germaniya (kontinental, qattiq tartibli), AQSH (anglo-sakson, "At-will employment"), Fleksiyuriti (ayrim Skandinaviya mamlakatlarini qamrab olganligi uchun Skandinaviya modeli deb ham ataladi), Yaponiya (segmentlangan mehnat bozori, dualizm) modellarida mujassamlashgani aniqlangan.

Dissertant nuqtai-nazariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar mehnat qonunchiligini tahlil etish, ularni muddatli mehnat shartnomasini tuzishda ish

beruvchilar huquqlari cheklangan davlatlarga, muddatli mehnat shartnomasini tuzishda ish beruvchilarga erkinlik berilgan davlatlarga va muddatli mehnat shartnomasini tuzish cheklanmagan, ammo muddatli asosda ishlayotgan xodimlar huquqlarini kuchli himoya qilishga qonunchilikni yo'naltirgan davlatlarga ajratish mumkin ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi ham qattiq tartibli model ildizlariga ega ekanligi uchun ish beruvchilarning muddatli mehnat shartnomasi tuzish huquqi qonun bilan cheklanganligi tadqiqotchi tomonidan ilgari surilib, ushbu masalada ish beruvchiga shartnoma tuzish erkinligini bosqichma-bosqich taqdim etish kerakligi asoslab berildi.

Dissertant tahlil etilgan modellarning ijobiy jihatlarini birlashtirgan holda "uyg'unlashtirilgan o'zbek modeli"ni yaratish mumkin ekanligini ilgari surdi. Tadqiqotchi "flexicurity" modelining o'ziga xos jihatlaridan aynan ish beruvchilarning moslashuvchan mehnat shartnomalarini tuzishda erkinligini ta'minlash, xususan, ayrim toifadagi xodimlar (pedagoglar, sportchilar, davlat fuqarolik xizmatchilari va boshqalar) bilan muddatli mehnat shartnomalarini tuzishda ish beruvchilarga erkinlik berish, shuningdek mazkur toifa xodimlar, agar shartnomada kelishilgan muddat davomida mehnat vazifasini lozim darajada bajarsa, intizomiy jazo olmagan bo'lsa, mehnat faoliyati davomida yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, muddatli mehnat shartnomasini uzaytirish yoki uni nomuayyan muddatli mehnat shartnomasiga aylantirish (transformatsiya)da ustuvor huquqlarga ega bo'lishi kerakligini asoslab berdi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Muddatli mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartirish, bekor qilish muammolari va ularni hal etish yo'llari**" deb nomlanib, unda dissertant muddatli mehnat shartnomasini tuzish asoslari va ularni amalda qo'llash masalalarini hamda muddatli mehnat shartnomasini o'zgartirish va bekor qilishning qonunchilikda belgilangan tartibini takomillashtirish istiqbollarini nazariy va amaliy tahlillar, sud qarorlari, so'rovnoma natijalari va boshqa amaliyot materiallari asosida tadqiq etgan.

Tadqiqotchi muddatli mehnat shartnomasini tuzishda ish beruvchilarga keng huquqlar berilishi ularning shartnoma tuzish erkinligini ta'minlashini nazarda tutib, ushbu erkinlik – muddatli mehnat shartnomasini tuzishga bo'lgan cheklanmagan huquqni ham o'z ichiga olishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu borada tadqiqotchi M.Gasanov, V.Onishenko, R.Xugayevlarning fikrlarini tahlil qilib, ular bilan ilmiy munozaraga kirishgan.

Dissertant muddatli mehnat shartnomasini tuzish asoslari mehnat huquqi nazariyasida ikkita guruhga: ish beruvchi uchun majburiy bo'lgan asoslar hamda ish beruvchining huquqi hisoblangan asoslarga ajratilishini tahlil qilar ekan, bu borada bir qator nazariyotchi olimlarning (Y.S.Batusova, Osipova S.V, I.A.Kostyan, S.V.Utkin va boshqalar) fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Dissertant ilmiy tadqiqotning amaliy natijalariga asoslangan holda muddatli mehnat shartnomasi moslashuvchan mehnat bozori sharoitida ijobiy baholangan shartnoma turi hisoblanib, u xodimlarning mehnat huquqlari va kafolatlarini ta'minlash jarayonida ish beruvchilar uchun qulayliklar yaratishi mumkinligini tadqiqot ishining gipotezasi sifatida ilgari surgan.

Tadqiqotchining fikricha, mavjud qonunchilik doirasida muddatli mehnat

shartnomalaridan foydalangan va foydalanmagan xodimlarning holatini solishtirish ushbu shartnoma turini faqat salbiy xususiyatini ko'rsatadi. Shu sababli, muddatli mehnat shartnomalarini tuzishni soddalashtirish ishsiz xodimlar uchun ishga ega bo'lib, keyinchalik doimiy bandlikka o'tish imkoniyati sifatida qarash kerak.

Bundan tashqari, tadqiqotchi sud amaliyoti materiallarini tahlil qilgan holda, ish beruvchilar tomonidan muddatli mehnat shartnomasidan xodimlarni ishdan bo'shatishning oson yo'li sifatida foydalanayotganliklarini ta'kidlaydi. Bunga asosiy sabab qilib milliy mehnat qonunchiligida mehnat shartnomasini bekor qilishning qiyin jarayon ekanligini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, tadqiqotchi ish beruvchilarga muddatli mehnat shartnomasini tuzishda keng imkoniyat berilishi tarafdori ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi Mehnat kodeksidagi har qanday asos ham ishning muddatli xususiyatga egaligidan kelib chiqmasligini asoslantirib berdi. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan muddatli mehnat shartnomasini tuzishning O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 112 va 113-moddalarida nazarda tutilgan asoslarining quyidagicha ilmiy-nazariy tasnifi ishlab chiqildi: ishning muddatli xususiyatiga ega ekanligidan kelib chiqib belgilangan asoslar; ish beruvchining huquqiy maqomini hisobga olgan holda belgilangan asoslar; xodimning huquqiy maqomi inobatga olingan holda belgilangan asoslar; qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa asoslar.

Dissertant milliy qonunchilikning kamchiliklari sifatida muddatli mehnat shartnomasini tuzishning eng kam muddati belgilanmaganligi hamda shartnoma muddatini o'zgartirishning cheklangan soni yo'q ekanligini ham e'tirof etgan. Shuningdek, tadqiqotchi mehnat shartnomasining muddati bilan bog'liq shartini o'zgartirishning uchta ko'rinishini ajratib ko'rsatadi: nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini muddatli shartnomaga o'zgartirish; muddatli mehnat shartnomasining muddatini uzaytirish (prolongatsiya); muddatli mehnat shartnomasini nomuayyan muddatli shartnomaga o'zgartirish. Uning fikricha, muddatli mehnat shartnomasini muddatini o'zgartirish qonunda belgilangan asoslar bilan yoki taraflar kelishuvi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Dissertant sud amaliyoti materiallarini tahlil qilgan holda, muddatli mehnat shartnomasini bekor qilishdan oldin taraflar tomonidan ogohlantirish muddatiga rioya etilmasligining oqibati qonunchilikda aniq belgilanmaganligini aniqlagan. Bunda sud amaliyotida ikki xil yechim bo'layotganligini ta'kidlagan. Uning fikricha, muddatli mehnat shartnomasi bekor qilinishi haqida xodimni o'z vaqtida ogohlantirmagan ish beruvchi ogohlantirish muddatlarini ogohlantirish muddatining davomiyligiga muvofiq keladigan pulli kompensatsiya bilan almashtirishi kerak.

## XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy takliflar hamda xulosalar ishlab chiqildi:

### I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Muddatli mehnat shartnomasini nazariy-huquqiy tadqiq qilishda mehnat

huquqida yuridik fakt sifatida xizmat qiladigan muddatlarning ahamiyati yuqori. Mehnat qonunchiligida “muddat” tushunchasiga ta’rif berilmagan bo’lsa ham, muddatlarning boshlanishi, o’tishi va tugashi huquqiy munosabatni vujudga keltirishi, o’zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin. Mehnat huquqi nazariyasida “muddat” va “huquqiy muddat” tushunchalari farqlangan bo’lsa-da, nazariy ta’rifi mavjud emas. Shuning uchun “muddat” tushunchasining mualliflik ta’rifi ilgari surildi. Unga ko’ra: “Mehnat huquqida muddat – yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarda yoki ular bilan bevosita bog’liq bo’lgan ijtimoiy munosabatlarda biror bir yuridik hodisani vujudga kelishi, o’zgarishi yoki bekor bo’lishi uchun o’zining amal qilishi, o’tishi yoki tugashi bilan ta’sir ko’rsatadigan yuridik faktning bir elementi bo’lgan payt yoxud yuridik ahamiyatga ega bo’lgan huquqiy oqibatlarni vujudga keltiruvchi yuridik shart – vaqt oralig’i”.

2. Mehnat huquqi nazariyasida ilgari surilgan muddatlarni tasniflashda mehnat munosabatlarida mavjud bo’lgan barcha muddat, har qanday vaqt oralig’i qamrab olinmaganligi huquq nazariyasining muammosi ekanligini aniqlandi. Ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilgan holda O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida mavjud bo’lgan muddatlarni tasniflash uchun ular quyidagicha guruhlanishi maqsadga muvofiq deb topildi: mehnat-huquqiy munosabatlar subyektlarining huquq va majburiyatlari amal qiladigan vaqt oralig’idan iborat muddatlar; shartli muddatlar; huquqiy hujjatlarning amal qilish davrining chegarasini belgilovchi muddatlar; xodimlarning ish beruvchidan huquqlarini talab etish uchun o’rnatilgan muddatlar; protsessual muddatlar va boshqalar.

3. Huquqiy normalar va huquqiy munosabatlar bilan o’zaro bog’liqlik nuqtai nazaridan nafaqat mehnat huquqi nazariyasi, balki huquqni qo’llash amaliyoti uchun ham eng mazmunli va dolzarb tasnif muddatlarni moddiy va nomoddiy turlarga ajratish hisoblanadi.

